


## Asosiy kapitalga investitsiyalar

2019-yil yanvar-dekabr

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 8434,6 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 62,0 % i, yoki 5226,4 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan, shuningdek 38,0 %, yoki 3208,2 mlrd. so'mi - korxonalar, tashkilotlar va aholining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### 2019-yil yanvar-dekabr

Hisobot davrida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 2786,6 mlrd. so'm investitsion mablag' yoki jami investitsiyalarning 33,0 % ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga qaraganda deyarli 77,8 marta ko'pdir. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 5648,0 mlrd. so'm o'zlashtirildi va 2018-yilga nisbatan 9,7 % ga oshdi.


Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 2359,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilindi, yoki jami investitsiyalarning 33,4 % i o'zlashtirildi. Aholining mablag'lari hisobidan 848,7 mlrd. so'm investitsiyalar, ulushi 10,1 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 1254,7 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi, 2018-yilga nisbatan 89,0 % ga ko'pdir va jami investitsiyalarning 14,9 % ini tashkil etdi.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 482,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 5,7 % ni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan, 38,4 % ga kamaygan, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 1957,6 mlrd. so'm (ulushi 23,2 % va 2,8 martaga o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan), tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan – 299,5 mlrd. so'm va ulushi 3,5 % ni tashkil etgan, 23,3 % ga kamaygan. Respublika byudjetidan – 1172,2 mlrd. so'm (ulushi 13,9 % va 139,6 % ga oshgan), Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasidan - 60,2 mlrd. so'm (ulushi 0,7 % va 2,7 martaga oshgan).




***Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi  
2019-yil yanvar-dekabr***



**Mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga  
kiritilgan investitsiyalarning ulushi**

(jamiga nisbatan % da)




Nodavlat mulkchiligi shakli

2019-yil yanvar-dekabr

Davlat mulkchiligi shakli

2019-yil yanvar-dekabr



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga investitsiyalar**

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan:</b>	<b>8434,6</b>	<b>96,6</b>	<b>100,0</b>
<b>Markazlashtirilgan investitsiyalar</b>	<b>2786,6</b>	<b>77,8</b>	<b>33,0</b>
<b>Davlat byudjeti</b>	<b>1172,2</b>	<b>139,6</b>	<b>13,9</b>
<b>Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasi</b>	<b>60,2</b>	<b>266,6</b>	<b>0,7</b>
<b>Tiklanish va taraqqiyot fondi</b>	<b>299,5</b>	<b>23,3</b>	<b>3,5</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari</b>	<b>1254,7</b>	<b>89,0</b>	<b>14,9</b>
<b>Markazlashtirilmagan investitsiyalar</b>	<b>5648,0</b>	<b>109,7</b>	<b>67,0</b>
<b>Korxonalar mablag'lari va maxalliy byudjeti</b>	<b>2359,5</b>	<b>98,1</b>	<b>28,0</b>
<b>Tijorat banklari kreditlari va boshqalar qarz mablag'lari</b>	<b>482,2</b>	<b>38,4</b>	<b>5,7</b>
<b>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar</b>	<b>1957,6</b>	<b>279,3</b>	<b>23,2</b>
<b>Aholi mablag'lari</b>	<b>848,7</b>	<b>108,4</b>	<b>10,1</b>


*Moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yo'qori o'sish sur'ati asosiy kapitalga investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish orqali kuzatilmoqda, xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 279,3 % ga o'sish kuzatildi. Bu chet el investitsiyalarini o'zlashtirish bilan bog'liq.*

### ***Asosiy kapitalga investitsiyalar, tumanlar kesimida***


	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
<b>Nukus shahri</b>	<b>1495,7</b>	<b>87,0</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>165,4</b>	<b>100,1</b>
<b>Beruniy</b>	<b>275,1</b>	<b>81,9</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>217,1</b>	<b>61,7</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>109,8</b>	<b>90,9</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>1175,1</b>	<b>112,2</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>256,8</b>	<b>277,6</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>1272,4</b>	<b>137,4</b>
<b>Nukus</b>	<b>219,9</b>	<b>156,7</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>1503,2</b>	<b>53,5</b>
<b>Taxtak'o'pir</b>	<b>51,3</b>	<b>48,3</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>681,3</b>	<b>347,4</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>268,2</b>	<b>194,1</b>
<b>Chimboy</b>	<b>164,9</b>	<b>131,5</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>168,6</b>	<b>214,8</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>405,3</b>	<b>205,6</b>

*Tumanlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar To'rtko'l tumanida eng yo'qori o'sish sur'ati 3,5 martaga oshdi, bu hisobot davrida Sho'rbuloq suv ombori qurilishiva ijtimoiy obyektlarni rekonstruksiya qilinishi hisobiga ta'minlandi, shuningdek yo'qori o'sish sur'ati Qonliko'l tumanida ham kuzatilmoqda. Bu 277,6 % ni tashkil etdi, ushbu hududda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi. Shumanoy tumani o'sish sur'ati 214,8 % ga oshdi, bu to'qimachilik va farmasevtika sanoatida investitsiyalarni o'zlashtirish hisobiga ta'minlandi.*

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tumanlar kesimida o'sish sur'atlari, % da**




## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo`yicha tahlil qilinganda Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish montaj ishlariga 4767,7 mlrd. so'm ajratildi va jami investitsiyaning 56,5 % ni tashkil etdi. Asosiy vositalarga investitsiyalarning mashina va uskunalarni sotib olishga 3404,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan 40,4 %) va boshqa harajatlar -262,3 mlrd. so'm (3,1 %).



## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Hisobot davrida asosiy fondlarga kiritilgan investitsiyalarning ko'p qismi mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik jihatdan qayta qurollantirishga qaratilgan bo'lib, 6042,6 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 71,6 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1697,2 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu 20,1 % ni, qolgan 8,3 % yoki 694,8 mlrd. so'mni boshqa sohalarga yo'naltirildi.



• O'rmon, baliqchilik va  
qishloq xo'jaligi  
1159,9 mlrd. so'm



• Tog'-kon sanoati  
1927,6 mlrd. so'm



• Qayta ishlash sanoati  
1138,2 mlrd. so'm



• Elektr, gaz bilan  
ta'minlash  
1480,0 mlrd. so'm



• Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya  
154,0 mlrd. so'm



• Qurilish  
267,7 mlrd. so'm



• Tashish va saqlash  
330,7 mlrd. so'm



• Ta'lim  
298,6 mlrd. so'm




• Uy joy qurilishi  
958,1 mlrd. so'm



• Boshqa yo`nalishlar  
719,8 mlrd. so'm


**Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar  
(ming. so'm)**



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkichi Mo'ynoq tumanida qayd etildi - 40 395,3 ming so'm, hisobot davrida bu yerda yangi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, xususan baliq konservalari, non va non mahsulotlari, osh tuzi ishlab chiqarish, shuningdek tayyor kiyim-kechak mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Taxiatosh tumanida -20507,7 ming so'm, bu Taxiatosh ES da yirik investitsiya loyihasi - quvvati 230-280 MVt bo'lgan ikkita bug'-gaz qurilmasi qurilishi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ham o'zlashtirildi, issiqxonalar tashkil etish va qizilmiya ildizini etishtirish stantsiyalari. Qo'ng'iro't tumanida aholi jon boshiga -9102,0 ming so'm to'g'ri keldi, bu Ustyurt platosidagi gaz sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)



- Tog'-kon sanoati
- Qayta ishlash sanoati
- Elektr yetkazib berish va gaz, bug'langan havo
- Ta'lim
- Turar -joy qurilishi
- Qishlog' xo'jaligi
- Faoliyatning boshqa turlari



Hisobot davrida faoliyat turlari bo'yicha elektr energiyasi va gaz ta'minotiga 1480,0 mlrd. so'm yoki investitsiyalar umumiy hajmining 17,5 % i sarflandi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Taxiatosh TESda elektr energiyasini ishlab chiqaradigan ikkita yangi qurilmaning qurilishi bilan bog'liq. Qayta ishlash sanoatiga 1138,2 mlrd. so'm yoki investitsiyalarning 13,5 % sarflandi, bular asosan 376,3 mlrd. so'mlik to'qimachilik sanoatiga, 218,2 mlrd. so'mni, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish 109,6 mlrd. so'm miqdorda investitsiyalar jalb etildi.


Tog'-kon sanoatida 1927,6 mlrd. so'm yoki umumiy investitsiyalarning 22,9 % i o'zlashtirildi, shundan 1851,2 mlrd so'm yoki investitsiyalar umumiy hajmining 21,9 % i tabiiy gaz qazib olishga yo'naltirildi (yangi qurilish ishlari) Ustyurt platosidagi gaz quduqlari.

Bundan tashqari, faoliyat turi bo'yicha ta'lim sohasiga 298,6 mlrd. so'm o'zlashtirildi, bu umumiy hajmning 3,5 % ini tashkil etadi. Faoliyat turi bo'yicha sog'liqni saqlash tizimiga 142,5 mlrd. so'm mablag' sarflandi, bu "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlari hamda ijtimoiy infratuzilmani qurish va rekonstruktsiya qilish hisobiga amalga oshirilmoqda. 958,1 mlrd. so'm yoki investitsiyalarning 11,4 % i uy-joy qurilishiga yo'naltirildi, shuningdek, faoliyat turlari bo'yicha qishloq xo'jaligiga 1159,9 mlrd. so'm mablag' ajratildi, uning ulushi 13,8 % ni tashkil etdi, bu ko'plab sohalarda issiqxonalar tashkil etilishi bilan bog'liq.



***Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar***

*(jamiga nisbatan, %da)*



*Asosiy kapitalga uzlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 33,2 % i elektr energiyasini va gaz yetkazib berish faoliyat turiga to`g`ri keldi va 28,4 % i tog'-kon sanoati faoliyat turiga o`zlashtirildi.*

***Chet el investitsiya va kreditlarining o'zlashtirilishi, tumanlar kesimida, mlrd. so'm***

Tumanlar	Jami chet el investitsiya va kreditlari	To'g'ridan to'g'ri va boshqa investitsiyalar	O'z.R. kafolatidagi chet el investitsiya va kreditlari	Kafolatlanmagan chet el kreditlari
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3212,3</b>	<b>850,1</b>	<b>1254,7</b>	<b>1107,5</b>
Nukus shahri	353,5	290,0	13,2	50,3
Amudaryo	16,0	0,2	1,2	14,6
Beruniy	36,9	1,2	2,6	33,1
Qorao`zak	97,3	7,6	0,1	89,6
Kegeyli	32,1	31,1	0,1	0,9
Qo'ng'iro't	500,8	282,4	1,0	217,4
Qonliko'l	153,7	19,8	0,4	133,5
Mo'ynoq	277,9	19,3	4,2	254,4
Nukus	81,5	48,4	2,5	30,6
Taxiatosh	1092,5	8,1	1045,4	39,0
Taxtako'pir	9,2	5,5	0,6	3,1
To'rtko'l	57,1	0,8	2,2	54,1
Xo'jayli	62,2	42,3	0,9	19,0
Chimboy	87,7	87,2	0,5	-
Shumanoy	125,3	5,8	0,1	119,4
Ellikqal'a	228,6	0,4	179,7	48,5





Yuqori o'quv o'rinlari -  
66,1 mlrd. so'm



Maktabgacha ta'lim  
muassasalari - 77,8  
mlrd. so'm



Umumta'lim maktablari -  
68,2 mlrd. so'm



Kasalxonalar,  
poliklinikalar va boshqa  
sog'liqni saqlash  
muassasalari-23,2 mlrd.  
so'm

24,5 milliard so'mlik investitsiyalar ambulatoriya poliklinikalari va boshqa sog'liqni saqlash muassasalarining kasalxonalarini yangi qurish va kapital rekonstruktsiya qilishga yo'naltirildi, bu sog'liqni saqlash sohasi faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 17,2 % ini tashkil etdi. Shundan 18,2 mlrd. so'm yangi qurilishlarga, 6,3 mlrd. so'mi mavjud muassasalarni rekonstruktsiya qilishga sarflandi. Nukus tumanida 70 o'rinli yangi shifoxona qurilib, bir smenada 50 kishiga mo'ljallangan 35-sonli qishloq oilaviy poliklinikasi foydalanishga topshirildi. Mo'ynoq va Ellikqal'a tumanlari hududida har birida 100 o'rinli yangi poliklinikalar qurilishi yakunlandi, Qanliko'l tumanida 100 o'rinli "16-sonli qishloq oilaviy poliklinikasi", shuningdek, 100 o'rinli Taxtako'pir, 50 o'rinli Chimboy, 75 o'rinli Nukus rekonstruktsiya ishlari yakunlandi va qishloq oilaviy sog'lomlashtirish markazi rekonstruktsiya qilinganidan keyin foydalanishga topshirildi.

Nukus shahrida ikkita oliy o'quv yurtining obyektlarini qurish uchun 66,1 mlrd. so'm investitsiyalar sarflandi.

O'quv jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar doirasida o'rta va o'rta maxsus maktablarni qurish va rekonstruktsiya qilishga 68,2 mlrd. so'm, shundan 23,1 milliard so'mi va mavjud muassasalarni rekonstruktsiya qilish uchun 45,1 mlrd. so'm yangi qurilishlarga sarflandi. Hisobot davrida respublikada 1710 o'quvchiga mo'ljallangan 7 ta yangi umumta'lim maktablari foydalanishga topshirildi, maktabgacha ta'lim muassasalari obyektlarini qurish va rekonstruktsiya qilishga alohida e'tibor berildi. Hisobot davrida 77,8 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar, shundan 17,1 mlrd. so'mi yangi qurilishlarga, 60,7 mlrd. so'mi mavjud obyektlar rekonstruksiyasiga, to'rtta bolalar musiqa va san'at maktablari binolarini qurishga 16,0 milliard so'm miqdorida investitsiyalar sarflandi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Aloqa telefoni: (71) 230-82-13**

**(71) 230-82-14**

**(61) 222-75-91**